

ANTROPOSENTRIK TILSHUNOSLIK

Fayziyeva Hafiza Alisher qizi

Namangan davlat pedagogika instituti, 1-kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15726514>

Annotatsiya. Ushbu maqolada antroposentrik tilshunoslik, uning yuzaga kelishi, mazkur yo'nalishning jahon tilshunosligida tutgan o'rni haqida so'z boradi. O'zbek tilshunosligida antroposentrik tilshunoslikning rivojlanishi, bu oqimga hissa qo'shgan olimlar, olib borilgan tadqiqot ishlari haqida ma'lumot beriladi. Shuningdek, maqolada antroposentrik tilshunoslikning yo'nalishlariga ham to'xtalinadi.

Kalit so'zlar: antroposentrik tilshunoslik, grammatik tizim, strukturalizm, lisoniy ong, paradigma.

Annotation. This article is about anthropocentric linguistics, its emergence and the role of this directions in world linguistics. The development of anthropocentric linguistics in Uzbek linguistics, the scientists who contributed to this direction and the research work carried out are provided. The article also is about the directions of anthropocentric linguistics.

Key words: anthropocentric linguistics, grammatical system, structuralism, paradigm.

Аннотация. В данной статье говорится об антропоцентрической лингвистике, ее возникновении, месте этого направления в мировой лингвистике. В узбекском языкознании развитие антропоцентрической лингвистики освещается через исследования учёных, внесших вклад в это направление. Также в статье упоминаются основные направления антропоцентрической лингвистики.

Ключевые слова: антропоцентрическая лингвистика, грамматическая система, структурализм, языковое сознание, парадигма.

KIRISH

XX asrning so'nggi yillariga kelib tilshunoslikka yangi yo'nalish kirib keldi. An'anaviy grammatik tizimdan farqli o'laroq, tilga shunchaki ma'lum bir qoliplashgan tizim sifatida emas, balki inson ruhiyati, hissiyoti, kechinmalari ifodasi sifatida qarash shakllandi. Shu tariqa tilshunoslikda markazida inson turuvchi yangi yo'nalish antroposentrik tilshunoslik shakllandi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, bu oqimda til va inson munosabatlari, ularning bog'liqligi ifodalanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

XX asrning oxirlarida shakllangan antroposentrik tilshunoslik "tilshunoslikda tub burilish sifatida baholanib, bu borada ko'plab tadqiqotlar yaratilmoqda".¹ Jumladan, rus olimi S.G.Vorkachev antroposentrik tilshunoslikni shunday ta'riflaydi: "Tilshunoslikda antroposentrik burilishning yuzaga kelishi strukturalizmning tilni tadqiq etishning "o'zida va o'zi uchun" tamoyilini chetga surib, asosiy e'tiborini shaxs omiliga qaratdi".² Professor N.Mahmudov antroposentrik tilshunoslik haqida o'z fikrlarini quyidagicha bayon etadi: "Tilning ana shunday obyektiv xususiyatiga muvofiq ravishda antroposentrik paradigmada inson asosiy o'ringa chiqariladi, til esa inson shaxsini tarkib toptiruvchi bosh unsur hisoblanadi".

¹ Nurmonov A. Mustaqillik davrida o'zbek tilshunosligi taraqqiyoti/ Tanlangan asarlar. 3 jildlik. – Toshkent, 2012. 3-jild. – B. 38.

² Vorkachev S.G. Lingvokulturologiya, yazikovaya lichnost, konsept: stanovleniye antroposentricheskoy paradigm v yazikoznanii / Filologicheskiy nauki. – 2001.- N_1. – C.64.

Antroposentrik tilshunoslikni “asosiy e’tibor nutqiy faoliyat bajaruvchisi, ya’ni nutq tuzuvchi va uni idrok etuvchi til egasiga qaratildi...Shaxs omilining tadqiqi tilshunoslik fanining psixologiya, falsafa, mantiq, madaniyatshunoslik kabi fanlar bilan bir nuqtada kesishishiga ham olib keldi”³ deya e’tirof etadi Durdona Xudoyerganova. Shuningdek, ilmiy paradigmaga “til egasi” kategoriyasining kiritilishi tilshunoslikda shaxs, lisoniy ong, tafakkur, faoliyat, mentallik, madaniyat kabi tushunchalarning yanada faollashishini taqozo etadi.⁴Bugungi kunda taraqqiy etib borayotgan tilshunoslik yo’nalishlaridan biri bo’lgan antroposentrik tilshunoslik rivoji uchun yuqorida nomlari keltilgan tilshunos olimlar, shuningdek, Safarov Sh., G’ulomov M., Tursunov Y., Karimov E. kabilar o’z hissalarini qo’shdilar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot antroposentrik tilshunoslik metodologiyasiga bag’ishlanadi. Maqolada antroposentrik tilshunoslikni yuzaga kelishi va uning rivojlanib borayotgan yo’nalishlariga urg’u beriladi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Antroposentrik tilshunoslik tilda inson faktori natijasida yuzaga kelgan tilshunoslik yo’nalishlaridan biri hisoblanadi. Antroposentrik tilshunoslik tilshunoslik maydonida bo’y ko’rsatgandan so’ng tilga bo’lgan qarashlar o’zgardi. Endi til bu shunchaki grammatik belgilardan iborat tizim emas, balki til orqali yuzaga chiqadigan nutq va bu nutqning so’zlovchi shaxsga aloqadorligiga e’tibor qaratildi. Antroposentrik tilshunoslik doirasida ko’plab olimlar ilmiy faoliyat olib borganlari natijasida bu sohada bir qator yutuqlarga erishildi va antroposentrizm hodisasi haqida qimmatli ma’lumotlar o’quvchilarga yetkazildi.

Mazkur tilshunoslik tarmog’i bugungi kunda rivojlanib kelayotgan yo’nalishlardan biri bo’lib, o’z navbatida bir nechta turlarga bo’lindi. Tilda inson omilining qaysi jihati ifodalanishiga ko’ra psixolingvistika, etnolingvistika, lingvokulturologiya, neyrolingvistika va boshqa shu kabi turlarga bo’lindi. Har qaysi yo’nalish tilning insonga xos bo’lgan u yki bu xususiyatni o’zida ifodalashi bilan bir-biridan farq qiladi. Masalan, psixolingvistika inson ruhiyati va tilning uzviyligi bo’lsa, lingvokulturologiya madaniyat va tilning o’zaro chambarchas bog’liqligini ifodalash maqsadida yuzaga kelgan.

XULOSA

Xulosa o’rnida shuni aytish joizki, antroposentrik tilshunoslik tilda inson omilining ifodasi o’laroq shakllangan tilshunoslikning yo’nalishlaridan biri bo’lib, bu soha doirasida yana ko’plab psixolingvistika, lingvokulturologiya, neyrolingvistika, kompyuter lingvistikasi, etnolingvistika, pragmalingvistika kabi tarmoqlar rivojlanmoqda. Soha doirasida mutaxassis olimlar tomonidan olib borilgan va bugungi kunda davom etayotgan ilmiy izlanishlar antroposentrik tilshunoslikning yangidan yangi qirralarini ochmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nurmonov A. Mustaqillik davrida o’zbek tilshunosligi taraqqiyoti/ Tanlangan asarlar. 3 jildlik. – Toshkent, 2012. 3-jild. – B. 38.
2. Vorkachev S.G. Lingvokulturologiya, yazikovaya lichnost, konsept: stanovleniye antroposentricheskoy paradigm v yazikoznaniy / Filologicheskiy nauki. – 2001.- N_1. – C.64.

³ Xudoyberganova D. Matnning antroposentrik tadqiqi. – Toshkent, 2013. – B. 6.

⁴Vorkachev S.G. Lingvokulturologiya, yazikovaya lichnost, konsept: stanovleniye antroposentricheskoy paradigm v yazikoznaniy / Filologicheskiy nauki. –Moskva, 2001.- N_1. – C.64.

3. Xudoyberganova D. Matnning antroposentrik tadqiqi. – Toshkent, 2013. – B. 6.
4. Vorkachev S.G. Lingvokulturologiya, yozikovaya lichnost, konsept: stanovleniye antroposentricheskoy paradigm v yazykoznanii / Filologicheskiy nauki. –Moskva, 2001.- N_1. – C.64.
5. Shokirova X. O‘zbek tilida kesimlik kategoriyasi: shaxs aktanti va uning nutqiy voqelanishi. Filol.fan. nomz. diss. – Toshkent, 2019. – 127 b.
6. Shokirova X. Tilning lingvosemiotik strukturasi (semantik-sigmatik, sintaktik-pragmatik aspekt asosida). Filol.fan. doktori diss. – Farg‘ona, 2022. – 240 b.
7. Shokirova X. Savodxonlik asoslari.– Farg‘ona, Classic. 2023.– 174 b.
8. Shokirova X. O‘zbek tilining sohada qo‘llanishi. – Farg‘ona, Poligraf Super servis. 2023. – 268 b.
9. Shokirova X. Mazmuniy sintaksis. – Farg‘ona, Classic. 2023. – 206 b.
10. Shokirova Kh. The issue of speech act in pragmatics. Theoretical & Applied Science.2020.06. DOI: 1015863/TAS. SOI:1.1/ TAS.
11. Shokirova X. Kesimlik kategoriyasi va shaxs aktanti. – Toshkent, 2012. – 85 b.
12. Shokirova X. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent, 2013. – 25 b.
13. Шокирова Х. Семиотик модел концепцияси. – Қўқон давлат педагогика институти Илмий хабарлари. 2024, 4-сон. – 1840 б.
14. Khavaskhon Shokirova. The Semiotic System and Structure of Language.Emergent: Journal of Educational Discoveries andLearning (EJEDL)Vol:4, No 1, 2025, Page: 1-5.